

KORRUPSIYANI ILDIZIDAN YO‘QOTISH: PORA BERISH AMALIYOTIGA QARSHI KURASH**Xoshimjonova Gulruxoy Nosirjon qizi**

Namangan davlat universiteti “Yuridik” fakulteti 1- kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17774972>

Annotatsiya. Hozirgi kun global muammolaridan biri bo‘lgan korrupsiya-jamiyat va millatning rivojlanishiga jiddiy to‘sqinlik qiluvchi illatdir. Korrupsiyaga qarshi ko‘plab davlatlar samarali kurash olib bormoqda. Ushbu maqolada ham aynan Korrupsiyaga oid muammolar va ularga ta'sirchan yechimlar eng muhimi esa korrupsiyada pora berishning ijtimoiy xavfliligi, korrupsiyaning boshlanishi sabablari yoritiladi. Bundan tashqari mazkur maqolada xorijiy davlatlarning korrupsiyaga qarshi kurash tajribasi, pora beruvchining korrupsiyaviy jinoyatdagi roli va mas'uliyati bayon etiladi. Maqolada shuningdek, hozirgi kunda yurtimizda korrupsiyaga qarshi olib eborilayotgan va amalga oshirilayotgan islohotlar, xorijiy tajribalarni qo'llash amaliyoti tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, pora, pora beruvchi, xorijiy tajriba, javobgarlik, qonunlar.

Аннотация. Одной из актуальных любальных проблем современности является коррупция-явление, которое серьёзно препятствует развитию общества и нации многие государства ведут эффективную борьбу с коррупцией. В данной статье рассматриваются коррупционные проблемы и эффективные решения, уделяя особое внимание общественной опасности взяточничества, причинам возникновения коррупции.

Кроме того, в статье анализируется опыт иностранных государств в борьбе с коррупцией, роль и ответственность дающего взятку в коррупционном преступлении. Также рассматриваются осуществляемые в нашей стране меры и реформы по противодействию коррупции а также практика применения зарубежного опыта.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией взятка, взяточник, зарубежный опыт, ответственность, законы.

Annotation. One of the major global issues today is corruption , which seriously hinders the development of society and the nation. Many countries are actively implementing effective measures to combat corruption. This article examines corruption related problems and practical solutions, with particular focus on the social danger of bribery and the causes of corruption. In addition, the article analyzes the anti- corruption experience of foreign countries, the role and responsibility of the bribe - giver in corruption - related crimes. The paper also discusses current reforms and measures being implemented in our country to combat corruption, as well as the application of international best practices.

Keywords: corruption, anti- corruption, bribery, bribe- giver, foreign experience liability, legislation.

Jamiyatga va insonlar hayotiga ijtimoiy xavf tug‘diruvchi, hozirgi kunda keng tarqalgan jinoyat bu korrupsiya. Korrupsiyaga qarshi butun dunyo mamlakatlari kurash olib bormoqda.

Korrupsiya ayniqsa hozirgi davrda yoshlarga va kelajakka tahdid soluvchi eng katta xavf tug‘diruvchi jinoyat ekani hech kimga sir emas. Shuningdek ko‘p davlatlarning birlashtirib turuvchi tashkilotlar ham ushbu jinoyatga qarshi samarali va ta'sirchan kurash olib borish g'oyalarini ishlab chiqishmoqda.

Shu jumladan yurtimizda ham mazkur jinoyatga qarshi qator islohotlar olib borilmoqda.

Prezidentimizning joriy yilning 19- sentabrida qabul qilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida fuqarolik institutlarining ishtirokini yanada kuchaytirish va ilmiy tadqiqotlarni qollab quvvatlash chora tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-288- sonli qarorida ham o‘z aksini topgan [1]. So‘ngi yillarda korrupsiyaviy jinoyatlarni tartibga solishda “pora olish” ko‘rinishiga e‘tibor berish bilan birgalikda “pora taklif qilish va berish” holatlari ham davlat tomonidan nazoratga olingan. Jumladan Prezidentning 2025- yil 5- mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig‘ilishida ishtirok etib, yurtimizda korrupsiyadan holi muhit yaratish bo‘yicha qilingan ishlagan baho berib keyingi vazifalarni belgilab berdi.

Jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarda korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik bugungi kunda juda ham muhimi. Korrupsiya -davlat organi mansabdor shaxslarining o‘z mansab mavqeidan foydalanib pora taklif etganlar shaxsning foydasiga biror harakatni sodir etish yoki sodir etmaslik hisoblanadi. Bu holat esa jinoyat huquqi bilan tartibga solinadi . Jinoyat kodeksining 210-211- moddalari pora olish va berish ko‘rinishidagi jinoyat uchun sanksiya belgilab qo‘yilgan, ushbu moddalarning jazo qismi bir xil ya‘ni pora berish ham pora olish jinoyati kabi bir xil darajaga ega [2]. Ammo, ular o‘rtasida farq bor. Agar pora bergan shaxs o‘z ixtiyoriga ko‘ra 30 kun ichida ushbu voqea haqida tegishli organlarga xabardor bersangiz va chin yildan pushaymon bo‘lsa u javobgarlikdan ozod etiladi [3]. Aynan ushbu norma orqali pora beruvchi jinoyatini anglashi va uning ijtimoiy xavfli ekanligini agar, ushbu jinoyatning oldi olinsa javobgarlikdan ozod etilishi mumkinligini bilgan holda xarakatlanishiga sabab bo‘ladi.

Bu orqali pora berish jinoyati ma‘lum darajada kamayadi, chunki normaning bu qismiga amal qilishni shaxs o‘z

1. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining PQ-288 sonli qarori
2. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 210-211- moddalari
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 211-212- moddalari

ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiradi. Bundan tashqari jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni oshirish ham korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatlarni shakllantiradi[4]. Pora berish harakati korrupsiyaviy jinoyat zanjirining boshlanishi desa ham bo‘ladi. Aynan pora berishni taklif etish orqali jinoyatga yo‘l ochiladi . Shu sababi ham fuqarolarning huquqiy ongini oshirish mamlakatimizni rivojlantirish yo‘lidagi asosiy vazifa hisoblanadi . Bu esa “ Korrupsiyaga qarshi kursh to‘g‘risidagi “ qonunda ham belgilangan.

Hozirgi kunda transmilliy muammoga aylangan korrupsiyaga qarshi xorijiy davlatlarda ham samarali chora tadbirlari olib borilmoqda. Xususan, Singapur, Finlandiya, Daniya va Norvegiya kabi davlatlarda korrupsiyaviy jinoyat sezilarli darajada kamaygan. Bunga sabab davlat organlarini shaffof faoliyatda ish yuritishi , davlat tomonidan nazoratga olinishi va ta'sirchan bo‘lgan normalarning joriy qilinishi va mavjudlarini takomillashtirish orqali erishilgan. Aynan manashu tajribalar asosida mamlakatimizda ham ” Korrupsiyadan holi hudud” yaratish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi faoliyat yuritmoqda [5].

Xulosa qilib aytganda korrupsiyaga qarshi kurashdagi asosiy muammolaridan biri bo‘lgan huquqiy ong va madaniyatni pastligi ham jamiyatda bunday jinoyatlarni avj oldirishga sabab bo‘lmoqda. Bu muammolarga qarshi kurashish maqsadida “Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish to‘g‘risida “ gi qonunda belgilab qo‘yilgan dasturlar bundan tashqari “O‘zbekiston -2030” strategiyasida o‘z tasdig‘ini topgan asosiy ustuvor yo‘nalishga muvofiq davlat siyosatini olib borish, eng muqobil bo‘lgan usullardan foydalanish mamlakatlari bunday jinoyatlarni kamaytirishda samarali bo‘lishi mumkin. Boisi

4. S.S Niyozova “Korrupsiyaga kurashda komplayens nazorat tizimi
5. O‘zbekiston Respublikasi prezidentining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha milliy kengashdagi nutqi huquqiy ongi mustahkam bo‘lgan shaxs o‘z manfaatini uchun qonunlarga qarshi chiqmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida “gi qonuni
2. “Jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish to‘g‘risida” gi qonun
3. S.S.Niyozova “Korrupsiyaga qarshi kurashishda komplayens nazorat tizimi”
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
5. <http://Anticorruption.uz>
6. <https://lex.uz>
7. <https://www.norma.uz>